

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQIY KOMPITENTLARNI CHET TILINI O‘RGATISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODLARI

Sayidova Azima Mubin qizi

Buxoro Innovatsiyalar universiteti

I bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishni xorijiy tillarni o‘rgatish asosida tashkil metodlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

***Kalit so‘zlar:** O‘zbek tili, J.Vandries, til universalialari, F. Shlegel, morfologik tipologiya, xitoy-tibet tillari, Kannada (Hindiston), sintetik flektiv tillar va hokazo.*

O‘zbek tilshonosligida rindosh va noqarindosh tillar bilan mavjud kontaktlari, bilingvizm va u bilan bog‘liq hodisalarni tadqiq qilish o‘zbek tilshunoslari oldida turgan eng muhim dolzarb muammolaridan biridir. Zero, “Yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida, zamonaviy bilim va kasb hunarlar, xorijiy tillarni puxta egallagan, Vatanimiz va xalqimizga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash bugungi zamonning dolzarb muammosidir”.¹ O‘zbek tilshonosligida til aloqalari, ularning bir-biriga ta’siriga bag‘ishlangan maxsus nazariy ishlar yaratilmagan. Bu esa til sohasida bilingvizm va interferensiya tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni olib borishga turtki bo‘lmoqda. Xalqlar o‘rtasida til kontaktlarining kuchayishi jahon tilshunosligida bu masalani yanada chuqur va atroflicha tadqiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda. “Tillarning to‘qnashuvi tarixiy zarurat bo‘lib, ular o‘zaro bir biriga ta’sir etmay qolmaydi”, deb alohida ta’kidlaydi fransuz tilshunosi J.Vandries. Bu

¹ Mirziyoyev Sh.M. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”. Toshkent. O‘zbekiston. 2019. B-356.

gapning tasdig'ini biz interferensiya hodisasi misolida ko'rishimiz mumkin. Til universalialari barcha tillar sistemalariga xos umumiy lingvistik kategoriyadir. Til universalialari yoki universalizm tildagi umumiy kategoriyalarni o'rganadi va deskriptiv hamda boshqa uslublarni tilning umumiy qonunlari bilan tipologik umumiylikni aniqlashda qo'llaniladi. Universalizm til qonunlarining umumlash-tirilishi demakdir. Ona tilini boshqa til bilan tipologik o'rganishda morfologik tipologiyaning o'ziga xos o'rni bor.

Morfologik tipologiya tillarni qarindoshlik munosabatlaridan qat'i nazar grammatik tuzilishi asosida turlarga ajratadi. Tillarning morfologik tipologiyasiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy asar Germaniyada 1809-yilda Fridrix Shlegel tomonidan yaratilgan. «Hindlarning tili va donoligi haqida» degan asarida F. Shlegel tillarni flektiv va affiksial tillarga ajratadi. Uning fikricha, tillar paydo bo'lgan kundan boshlab, bu ikki turdan biriga mansub bo'ladi va shundayligicha qoladi. Shunday qilib, tildagi doimiy sodir bo'lib turuvchi o'zgarish inkor etiladi. Tasnifga asos qilib so'z o'zagidagi o'zgarish olingan. F. Shlegel gapda so'zlar munosabatga kirishganda o'zakningichki tuzilishi o'zgaradigan tillarni istiqbolli hisoblab, ularni flektiv tillar deb atagan, bu turga nemis va boshqa hind - ovrupo tillarini kiritgan. Uning fikricha, affiksial tillarning o'zaklari o'zgarmaydi, grammatik shakl esa affikslarning to'g'ridan-to'g'ri qo'shilishi tufayli o'zgaradi. Bunday tillarni u «nuqsonli» tillar deb atab, ularga grammatik strukturasi turkiy tillarnikiga o'xshagan tillarni kiritgan. Qiyoslang:

*Flektiv tillar Affiksial tillar shraybe - shriyb yozayapman - yozdim
jiewcy- Jiez yotibman - yotdim*

1818-yilda F. Shlegelning ukasi Avgust Shlegel «Provansal tili va adabiyoti to'g'risida xotiralar» degan asarida tillarni *flektiv*, *affiksial* va *amorf* tillarga ajratadi.

U amorf tillarga xitoy-tibet tillarini kiritib, ularning xususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumot berdi, flektiv tillarni esa sintetik flektiv tillar va analitik flektiv tillarga ajratishni tavsiya etdi.

A.Shlegel ham tillarni mukammal va mukammal bo'lmagan tillarga ajratadi.

Kezi kelganda shuni qayd qilish kerakki, tillarning yaxshi-yomon, mukammal yoki nuqsonliligi bo‘lmaydi. XIX va hatto XX asrda yashab ijod etgan ayrim nemis va Amerika olimlari millat va ularning tillarini kamsituvchi ana shunday fikrlarni ilgari surishgan. Aslida barcha millat va tillar bir-biriga teng, chunki tillar o‘z jamiyatiga to‘la-to‘kis xizmat qiladi. Nemis tili nemis xalqiga qanday xizmat qilayotgan bo‘lsa, Kannada (Hindiston), nanay tillari ham o‘z xalqiga aynan shunday xizmat qilmoqda. Barcha tillarning vazifasi bir xil, ya’ni aloqa vositasi xizmatini o‘tashdir.

Ona tili darslarida o‘zbek tilini xorijiy til bilan qiyoslash o‘quvchilarning ona tilini chuqurroq o‘rganishiga, o‘zbek tilining xorijiy tillar, jumladan rus, ingliz tillaridan farqini anglashiga yordam beradi. Shu bilan birga eng muhimi xorijiy tillarning o‘zbek tiliga salbiy ta’siri, ya’ni interferensiyaning oldi olinadi.

“Otlarda birlik va ko‘plik” mavzuni o‘tishda otdan olfin son kelganda o‘zbek, rus, ingliz tillarida otning qanday shaklda bo‘lishini qiyoslab ko‘rsatadi. O‘quvchilarga ko‘plikning ingliz, rus va o‘zbek tilida qanday ifodalanishi quyidagicha tushuntiriladi: “O‘quvchilar, o‘nta qalam rus tilida desyat’ karandashey, ingliz tilida then pensils deyildi. Ya’ni rus, ingliz tillarida otdan oldin son kelganda otga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shiladi. O‘zbek tilida esa -lar qo‘shimchasi qo‘shilmaydi. Ya’ni o‘nta qalamlar deyilmaydi. Bunday deyilsa xato hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.X A Xayitov *Фафур Фуломнинг халқ латифаларидан фойдаланиши маҳорати. Academic research in educational sciences* 2(3), 679-687.

2.H H Akhmadovich *Khoja nasriddin afandi as people’s hero . AKADEMICIA : AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11(2).1562.

3.T. Khoja o‘g‘li, *K H Ahmadovich Advanced Characteristiks of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature. Amerikan Journal of Social and Humanitarian Research* 3 (9).1-4.

4.K K Akhmadovich, NS Ubaydullayevna *THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADES. Conferencea, 66-75..*

5.K K Akhmadovich, O B Togmurodovich *NEW STAGES AND PRACTICAL CONDITIONS FOR CREATING NATIONAL TEXTBOOKS AND ALPHABET BOOKS. Conferencea, 54-58.*

6.K K Akhmadovich, SG Badriddinovna *THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN'S READING E Conferencea, 28-33.*

7.KK Akhmadovich, N O Alisherovna *THE AESTHETIC VALUE OF LINGUISTIC FLORIONYMS IN WORKS OF ART IN AROUSING LAUGHTER 59-63.*

8.K K Akhmadovich, O B Togmurodovich *THE ISSUE OF THE CONTENT OF EDUCATION IN THE HISTORY OF THE PEOPLES OF THE EAST Conferencea, 95-101.*

9.K K Akhmadovich, S G Badriddinovna *HISTORICAL GENESIS OF UZBEK CHILDREN'S READING, PRINCIPLES OF DEVELOPMENT AND AESTHETIC EXPE=RESSION OF NATIONALITY IN THEM E Conference Zone, 47-51.*

10.K K Akhmadovich, N O Alisherovna *THE PROBLEM OF AROUSING LAUGHTER IN UZBEK PROSE BASED ON LINGUISTIC FAUNIMS Conference 90-94.*